

## O‘QUVCHI-YOSHLAR KAMOLOTIDA “IJODIY-MADANIY TARG‘IBOTCHILARNING” TUTGAN O‘RNI

**Ziyayev Ismoil Tursunovich**

Surxondaryo viloyati Uzun tumani 41-maktabning  
ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ijodiy madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozmining tashkil etilishi va ularning asosiy faoliyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Madaniy-ma’rifiy, kelajak, o‘quvchi, yoshlar, maktab, ijodkor, to‘garak, faoliyat, ma’naviyat, iste’dod.

Bolani yoshligidan badiiy tafakkur qilishga o‘rgatish, iste’dodini yuzaga chiqarish uning intellektual rivojida muhim omil sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qaroriga muvofiq, o‘tgan o‘quv yilidan boshlab respublikamizdagi umumta’lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etildi.

Ushbu lavozim ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, iqtidorli o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, uni ro‘yobga chiqarishni ko‘zda tutadi. Aytaylik, bugun “Yosh ijodkorlar” to‘garagiga qatnashayotgan hamma bolalar ham kelajakda shoir-yozuvchilikka da’vo qilmas, lekin ular bu muhitda ma’rifatli-ma’naviyatli insonlar bo‘lib ulg‘ayishi tabiiy.

2021-yil 1-yanvardan boshlab har bir umumta’lim muassasasida prezident qaroriga binoan ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etildi va quyidagilar belgilab qo’yildi.

a) Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimiga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tavsiya etilgan taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va ijodkorlar, oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy gumanitar kafedralari professor va o'qituvchilari jalb qilinadi;

b) Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimiga tayinlangan:

taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va ijodkorlarning mehnatiga umumta'lim muassasalaridagi “Yoshlar yetakchisi” lavozimining 0,25 shtat birligi hisobidan;

oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy gumanitar kafedralari professor va o'qituvchilarining mehnatiga — mazkur oliy ta'lim muassasalarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan haq to'lanadi.

v) Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarga yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalash, maktab o'qituvchilari va faol o'quvchilarining ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishga ko'maklashish, turli xildagi viktorinalar, mushoiralar, adabiy kechalar, qiziqarli darslar, kitobxonlik va she'rxonlik musobaqalarini tashkil etish vazifalari yuklanadi.

Xo'sh, ijodiy – madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning asosiy vazifalari nimalardan iborat ekan. Keling hozir shu haqda ham to'xtalib o'tsak.

O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi”ning lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

-ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va saralash bilan shug'ullanadi. O'quvchilarning ijodiy ishlari bilan muntazam tanishib boradi, ularga ijodiy jihatdan yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

- ijodiy to'garak tashkil etadi va reja asosida mahorat saboqlarini olib boradi. Yorqin iste'dodga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarni Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O'zbekiston jurnalistlari uyushmasi tomonidan o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan turli ijodiy tanlovlarga jalb qiladi. Ularning ijodiy ishlarini adabiy nashrlarga tavsiya etadi;

- iste'dodli ijodkor o'quvchilarni atoqli adiblar nomidagi ijod maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali kelajakda ularning ijod maktablarida ta'lim olishlariga motivatsiya beradi;

- o'quvchilar o'rtasida turli adabiy, ijodiy tanlovlar, festival va boshqa tadbirlar tashkil etadi, shuningdek, ular o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish va kitob mutolaasini targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni olib boradi;

- taniqli yozuvchi va shoirlarni jalb qilish orqali umumta'lim maktablarida adabiy-badiiy kechalarni tashkil etadi. O'zbekiston va jahon adabiyotining eng sara durdonalarini targ'ib qilish orqali o'quvchi-yoshlar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirish, yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalash bo'yicha muntazam ravishda ish olib boradi;

- badiiy adabiyot, ijodiy jarayonlarga qiziqtirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og'ir bolalarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Prezident farmoniga asosan, 2020 yil 28 dekabrda xalq ta'limi vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining qo'shma qarori tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020-yil 28-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari faoliyatini takomillashtirish hamda Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini joriy etish to'g'risida"gi qo'shma qarorining 1-bandiga asosan umumta'lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi 0,5 shtat birligi joriy etilgan. Bugungi kunda Respublika bo'yicha o'n ming nafardan ortiq targ'ibotchilar faoliyat yuritib kelmoqda.

Mazkur qo'shma qarorda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchining asosiy vazifalari belgilab berilgan bo'lsada, o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ularning faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab beruvchi qo'llanmaga ehtiyoj

sezilmoqda. Bu borada ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning o'zlari tomonidan ham takliflar bildirilmoqda.

Ushbu muammoning yechimi sifatida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan soha mutaxassislari ishtirokida amaliy-seminar-trening o'tkazilishi va uning natijasiga ko'ra, bildirilgan taklif-mulohazalarni inobatga olib, soha mutaxassislari uchun qo'llanma tayyorlash rejalashtirilmoqda.

Mazkur sohani tubdan rivojlantirish, tizimli yondashuv yo'lga qo'yish, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim shakllantirish maqsadida tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni targ'ibot-tashviqot qilish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlashda ilmiy asoslangan yondashuvlar, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda.

Mazkur ishlarni yagona bir tizimga keltirib, soha mutaxassislari uchun uslubiy qo'llanma yaratish bugunning dolzarb masalasi bo'lib turibdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020-yil 28-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari faoliyatini takomillashtirish hamda Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini joriy etish to'g'risida"gi qo'shma qarori.

3. Baxtiyor.uz "Ijodiy-madaniy targ'ibotchining asosiy vazifasi nima?"

4. Aziza Sharofiddinova. Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarga yengilliklar yaratiladi. Yangi O'zbekiston. 23.11.2021